

## XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH

**Ibragimova Jahona**

*Andijon davlat pedagogika instituti  
huquq ta'limi yo'nalishi  
1-bosqich magistranti*

**Anostatsiya:** *Mazkur maqolada huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlanirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilinadi. Xususan, Germaniya, AQSH, Yaponiya davlatlari fuqarolarining huquqiy ongini oshirishga qaratilgan ta'lim tizimi, huquqiy savodxonlik dasturlari o'rganiladi. Shuningdek ushbu ilg'or tajribalar asosida O'zbekiston sharoitida huquqiy madaniyatni rivojlanirishga oid takliflar ilgari suriladi. Maqola huquqshunoslar, pedagoglar va davlat boshqaruvi sohasi mutaxasislari uchun foydali bo'lishi mumkin.*

**Kalit so'zlar:** *Huquqiy madaniyat, huquqiy ong, xalqaro tajriba, fuqarolik ta'limi, huquqiy savodxonlik, qonun ustuvorligi, milliy model.*

**Annotation:** *This article analyzes the experience of foreign countries the formation and development of legal culture. In particular, the educational system and legal literacy programs aimed at increasing the legal awareness of citizens of Germany, the USA, and Japan are studied. Also, on the basis of these best practices for the development of legal culture in the conditions of Uzbekistan will be put forward. The article may be useful for lawyers, pedagogues and public administration specialists.*

**Key words:** *Legal culture, legal awareness, international experience, civic education, legal literacy, rule of law, national model.*

Huquqiy madaniyat - bu jamiyat yoki shaxsning huquqiy bilim darajasi , qonunlarga hurmati, huquqiy normalarga rioya qilishga tayyorligi hamda huquqiy tizimning rivojlanganlik darajasini ifoda etuvchi tushuncha. Huquqiy madaniyati yuqori bo'lgan davlatlarda inson huquqlari himoya qilinadi , fuqarolar o'z huquqlaridan xabardor bo'ladi va qonunlarga hurmat ko'zi bilan

qaraydi. Shu sababli, huquqiy ta'lif va targ'ibot jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi.

Huquqiy madaniyatni rivojlantirish har bir davlatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, ilg'or huquqiy tizimga ega davlatlar fuqarolarning huquqiy ong darajasi yuqori bo'lib, ular qonunlarga hurmat bilan qaraydi. Shu bois O'zbekiston ham huquqiy madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribadan samarali foydalanishi zarur.

Dunyodagi rivojlangan davlatlar huquqiy madaniyatni rivojlantirishda turli yondashuvlardan foydalanadi. Ular orasida quyidagilar eng samaralilari hisoblanadi:

Germaniya huquqiy madaniyatni rivojlantirish bo'yicha samarali tajribaga ega davlatlardan biri hisoblanadi. Ushbu mamlakatda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishda quyidagi muhim yondashuvlar mavjud:

Huquqiy ta'lif tizimi. Germaniya maktabalarida huquqiy ta'lif ta'lif erta bosqichdan boshlanadi. O'quvchilar asosiy huquqlar, fuqarolik burchlari va konstitutsion tartib-qoidalarni o'rganadilar. Universitlarda va maxsus o'quv markazlarida aholining barcha qatlamlari uchun bepul huquqiy savodxonlik kurslari tashkil etiladi. Bundan tashqari, huquqiy ta'lif jarayonlarida amaliy mashg'ulotlar, simulyatsion sud jarayonlari va debatlar keng qo'llaniladi.

Davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan muntazam seminar va treninglar o'tkaziladi. Masalan, "Demokratiya uchun ta'lif" dasturi orqali aholining huquqiy bilimlari oshiriladi. media loyixalar ishlab chiqiladi. Televizion dasturlar, radio eshittirishlar va Huquqiy ongi rivojlantirish uchun maxsus onlayn platformalar orqali fuqarolarning huquqiy xabardorligi oshirildi.

Germaniyada har bir fuqaro huquqiy yordam olish huquqiga ega. Shuning uchun bu davlatda bepul huquqiy yordam beruvchi markazlar faoliyat yuritadi.

Sud jarayonlarining shaffofligi ta'minlanadi. Fuqarolar sud tizimiga ishonch bildirishlari uchun barcha sud qarorlari ochiq e'lon qilinadi. Germaniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, huquqiy madaniyatni shakllantirish uchun huquqiy ta'lif, ommaviy huquqiy targ'ibot va sud tizimining shaffofligi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston ushbu tajribadan foydalanib, huquqiy ong va madaniyatni oshirish bo'yicha samarali dasturlar ishlab chiqishi mumkin.

AQSHda huquqiy madaniyatni shakllantirish huquqiy ta'lif, fuqarolik ongini oshirish va huquqiy xizmatlarning qulayligini ta'minlash orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda innovatsion yondashuvlar va interfaol usullardan keng foydalaniladi. Bundan tashqari, maktab va universitetlarda huquqiy fanlar majburiy dars sifatida o'qitiladi. AQSHda huquqiy ongni shakllantirish erta bosqichdan boshlanadi. O'quvchilarga konstitutsiya, inson huquqlari va fuqarolik huquqlari haqida darslar o'tiladi.

Universitetlarda huquqiy klinikalar tashkil etilib, talabalar aholiga bepul huquqiy maslahat berish orqali amaliy tajriba orttiradi. Maktab va unviversitetlarda talabalar o'rtasida sud jarayonlarini jonlantirish (moot court) orqali huquqiy bilimlarni mustahkamlash tizimi mavjud. Davlat va nodavlat tashkilotlari aholining huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha muntazam dasturlar ishlab chiqadi. Masalan, "American Bar Association" (ABA) tamonidan yuritiladigan huquqiy ma'rifat kampaniyalari aholiga huquqlarini tushuntirishga qaratilgan. Huquqiy ongni oshirish uchun ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalaniladi. Huquqiy platformalar va onlayn maslaht xizmatlari mavjud. Masalan, "Legal Aid" va "FindLaw" kabi onlayn platformalar aholiga bepul yoki arzon narxlarda huquqiy maslahatlar berishga yordam beradi.

AQSH tajribasi shuni ko'rsatadiki, huquqiy madaniyatni rivojlantirish uchun huquqiy ta'limi kuchaytirish, interfaol o'qitish usullaridan foydalanish va bepul huquqiy xizmatlardan keng foydalanish muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston ham huquqiy klinikalar tshkil etish, maktablarda huquqiy fanlarni rivojlantirish va ommaviy axborot vositalari orqali huquqiy targ'ibotni kuchaytirish kabi yondashuvlardan samarali foydalana oladi.

Yaponiyada esa huquqiy madaniyatni shakllantirish jamoaviy ong, an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy huquqiy ta'lif tizimining uyg'unligi orqali amalga oshiriladi. Huquqiy savodxonlikni oshirishga nafaqat ta'limm muassasalari , balki korporativ sektor va davlat idoralari ham katta e'tibor qaratadi. Yaponiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, huquqiy madaniyatni shakllantirish uchun huquqiy ta'limi axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, ish joylarida huquqiy savodxonlikni oshirish va jamiyatda qonunlarga hurmat muhitini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa . Rivojlangan davlatlarning huquqiy madaniyatni shakllantirish tajribasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, samarali huquqiy ta'lif va fuqarolar huquqiy ongini oshirish orqali jamiyatda qonunga rioya qilish darajasini oshirish mumkin. Mazkur tajribalarda kelib chiqib, O'zbekistonda quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

Maktab va universitetlarda huquqiy fanlarning o'qitilishini kengaytirish.

Simulyatsion sud jarayonlari, huquqiy debatlar va interfaol usullardan foydalanish.

Talabalar uchun huquqiy klinikalarни kengaytirish va amaliyot dasturlarini rivojlantirish.

OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali huquqiy axborotlarni keng targ'ib qilish shular jumlasidandir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023-yilgi tahrir)
2. O'zbekiston Respublikasining „Ta'lif to'g'risida” gi qonuni.
3. Germaniya Federativ Respublikasi Konstitutsiyasi va ta'lif tizimi bo'yicha normativ hujjatlar .
4. United states Constitution - AQSH Konstitutsiyasi va fuqarolik ta'limi dasturlari bo'yicha hujjatlar.
5. Japan's Educational System and Legal Literacy Programs - Yaponiya ta'lif tizimi va huquqiy madaniyat bo'yicha akademik tadqiqotlar.
6. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy veb-sayti: [www.adliya.uz](http://www.adliya.uz)
7. Oliy ta'lif , fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy veb-sayti; [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
8. Germaniya , AQSH va Yaponiya ta'lif tizimi bo'yicha rasmiy veb-saytlar va ilmiy bazalar.